

## Ecological Fashion: A Step Towards a Sustainable Future

**Abduqodirova Nargiza Abdurahimovna**

Teacher of the Department of "Clothing Design" of the  
National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod

### Abstract

This article explains the concept of eco-fashion, its importance and benefits. It analyzes the negative impact of the fashion industry on the environment and how eco-fashion can reduce these problems. It also provides information on ways to support eco-fashion, such as using sustainable materials, caring for clothes properly, and promoting fair labor practices. The article encourages increased environmental responsibility and sustainable lifestyles.

**Keywords:** eco-fashion, organic cotton, sustainable fashion, environmental policy, fashion management.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ekologik moda tushunchasi, uning ahamiyati va afzalliklari yoritib beriladi. Moda sanoatining atrof-muhitga salbiy ta'siri va ekologik modaning bu muammolarni qanday kamaytirishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik modani qo'llab-quvvatlash usullari – barqaror materiallardan foydalanish, kiyimlarga to'g'ri g'amxo'rlik qilish va adolatli mehnat amaliyotlarini rag'batlantirish kabi yo'llar haqida ma'lumot beriladi. Maqola ekologik mas'uliyatni oshirish va barqaror hayot tarzini shakllantirishga da'vat etadi.

**Kalit so`zlar:** эко-мода, органик пакта, баркарор мода, экологик сиёсат, модани бoshqarish.

### Kirish

So'nggi yillarda dunyoda barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyasi moda sanoatida ham keng tarqalmoqda. O'zbekistonda esa bu sohadagi faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari ancha keng bo'lib, milliy an'anaviy matolar va hunarmandchilik salohiyatidan foydalanish eko-modaning asosiy ustunliklaridan biridir. Moda sanoati nafaqat estetika va iste'mol madaniyatining bir qismi, balki global ekologiya muammosining ham muhim manbai sifatida baholanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moda sanoati dunyodagi tabiatga zarar sohalardan biri bo'lib, u suv resurslarini ko'p sarflaydi, havo ifloslanishiga sabab bo'ladi va millionlab tonna chiqindi hosil qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida "ekologik moda" (yoki "barqrar moda") tushunchasi paydo bo'ldi.

Ekologik moda - bu kiyim-kechaklarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan harakat. U barqraror materiallardan

foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishda adolatli mehnat amaliyotlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Ekologik moda — bu faqat "yashil rangdagi" kiyim emas, balki butun ishlab chiqarish va iste'mol zanjirida atrof-muhitga va inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Uning asosiy yo'naliishlari:

- Barqraror xom-ashyolardan foydalanish (organik paxta, bambuk, qayta ishlangan matolar);
- Energiyani tejash va suv sarfini kamaytirish;
- Kam chiqindili ishlab chiqarish usullarini qo'llash;
- Mahsulotlarni qayta ishlash yoki qayta ishlatish imkoniyati.

### Nima uchun eko-modaning muhim?

Moda sanoati dunyodagi eng yirik ifloslantiruvchilardan biri hisoblanadi. Tez moda (fast fashion) tendensiyasi orqali arzon va tez ishlab chiqariladigan kiyimlar ko'p miqdorda chiqariladi, bu esa tabbiy

resurslarning isrof bo'lishiga, ishlab chiqarishdagi ifloslanishga va chiqindilarning ortishiga olib keladi. Eko-modan bu muammolarga yechim taklif qiladi, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligini saqlash va mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvni ilgari suradi.

Ekologik modaning bir nechta afzallikkari mavjud:

1. Ekologik moda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga yordam beradi. Barqaror materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishda adolatli mehnat amaliyotlarini qo'llab-quvvatlash orqali ekologik moda moda sanoatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

2. Ekologik moda ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlaydi. Ko'pgina ekologik moda brendlari adolatli mehnat amaliyotlarini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa kiyim-kechaklarni ishlab chiqaruvchi ishchilar adolatli maosh oladi va xavfsiz sharoitlarda ishlaydi.

3. Ekologik moda innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Ekologik moda brendlari yangi va barqaror materiallarni, shuningdek, kiyim-kechaklarni ishlab chiqarishning yangi usullarini ishlab chiqishga intiladi. Bu esa moda sanoatida innovatsiyalar va ijodkorlikni rag'batlantiradi.

Eko-modaning istiqbollari (kelajagi) jahon va mahalliy miqyosda umidbaxsh hisoblanadi. Atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish va ongli iste'mol masalalari global ahamiyat kasb etib borayotgani sababli, eko-modan ham jadal rivojlanmoqda. Quyida eko-modaning istiqbolli yo'nalishlari keltirilgan:

1. Barqarorlik moda sanoatida standartga aylanishi.

2. Kelgusi yillarda moda sanoatida barqaror ishlab chiqarish va ekologik talablarga rioya qilish global standartga aylanishi kutilmoqda. Ko'plab brendlari

ekologik siyosatni amalga oshirishga majbur bo'ladi.

3. Qayta ishlangan materiallardan keng foydalanish.

4. Qayta ishlangan djinsi, plastik shishalar, mato parchalari kabi materiallardan yaratiladigan kiyimlar soni ortib boradi. Bu chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejashga yordam beradi.

5. Innovatsion texnologiyalar.

6. Biomateriallar (masalan, zamburug'lardan olinadigan mato), sun'iy terilar, 3D printerda tayyorlangan kiyimlar, "aqlli" matolar kabi texnologik yechimlar eko-modani yangi bosqichga olib chiqadi.

7. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Iste'molchilar ekologik modani qo'llab-quvvatlashlari uchun quyidagi amaliy choralarни qo'llash mumkin:

- Barqaror materiallardan tayyorlangan kiyimlarni tanlash

- Ishlatilgan kiyimlarni sotib olish yoki ijaraga olish

- Kiyimlarga to'g'ri g'amxo'rlik qilish, ta'mirlash va uzoq muddat foydalanish

- Eko-brendlarni qo'llab-quvvatlash

- Kiyim-kechaklar xaridida ahamiyatli va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish

8. Iste'molchilar ongi oshishi. Yosh avlod ongli iste'molga va tabiatga ehtiètkor munosabatga ega bo'lib o'smoqda. Bu kelajakda eko-modan mahsulotlariga talabni yanada oshiradi.

9. Kiyim ijarasi va almashish platformalari. Kiyimlarni ijaraga berish, almashish va qayta sotish servislari (swap, thrift va rental fashion) orqali tez modaga bo'lgan ehtièj kamayadi.

10. Etiketlar va raqamlı shaffoflik. Kelajakda kiyimning qanday sharoitda, qayerda va kim tomonidan ishlab chiqarilganini ko'rsatuvchi raqamlı etiketkalar (blokcheyn yordamida) ommalashadi. Bu iste'molchilar uchun aniq va ishonchli ma'lumot manbai bo'ladi.

11. Davlat va xalqaro siyosat yordami.

BMT va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar eko-modani qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini kengaytirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ekologik moda - bu kiyim-kechaklarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan muhim harakat. U barqaror materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishda adolatli mehnat amaliyotlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ekologik modani qo'llab-quvvatlash orqali biz moda sanoatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlashga yordam berishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- Fletcher, K. (2008). Sustainable Fashion and Textiles: Design Journeys. Earthscan. Ekologik modaning asosiy nazariy va amaliy yondashuvlari haqida.
- Ellen MacArthur Foundation (2017). A New Textiles Economy: Redesigning Fashion's Future. URL:<https://ellenmacarthurfoundation.org> Moda sanoatidagi chiqindilar va qayta ishslash masalalari bo'yicha hisobot.
- Greenpeace(2016).TimeoutforFastFashion .URL:<https://www.greenpeace.org> Fast fashion'ning tabiatga salbiy ta'siri va ekologik modaning ahamiyati haqida tahliliy material.
- World Bank (2019). How Much Do Our Wardrobes Cost to the Environment?URL: <https://www.worldbank.org> Kiyim sanoatining global ifloslanishga ta'siri bo'yicha statistik ma'lumotlar.
- Naumanova, M. (2021). Ekologik moda: barqaror rivojlanishning zamonaviy tendensiyasi. "Yosh olimlar nazarida fan" jurnali, №4, 55-58-betlar.Ekologik moda bo'yicha ilmiy maqola.

Abduqodirova N.A. O'zbekistonda eko-modan: muammolari va istiqbollari. Nazariy va amaliy fanlardagi ustivor islohatlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari. Ekologik moda bo'yicha ilmiy maqola. 2025. №5, 682-685 betlar 3(5),

Abduqodirova N.A. Эко-мода важный шаг в сохранение природы. Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI, «O'zbekiston zamonaviy san'atining innovatsion rivojlanish istiqbollari» Respublika ilmiy amaliy konferensiya, 241-243 betlar.